

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.10/2025.27.12.T.01.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

DURDIYEV XURSHID DAVRONBEK O'G'LI

**URBANIZATSIYA JARAYONINI HISOBGA OLGAN HOLDA SHAHAR KO'CHA
-YO'L TARMOG'INI REJALASHTIRISH TAMOYILLARI (URGANCH SHAHRI
MISOLIDA)**

**05.09.02 - "Geotexnika" (Yo'llar, yo'llarni raqamlashtirish va yo'l harakati xavfsizligi.
Yo'l telematikasi yo'nalishlari bo'yicha)**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2026

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Durdiyev Xurshid Davronbek o'g'li

Urbanizatsiya jarayonini hisobga olgan holda shahar ko'cha-yo'l tarmog'ini rejalashtirish tamoyillari (Urganch shahri misolida).....3

Дурдиев Хуршид Давронбек угли

Принципы планирования городской улично-дорожной сети с учетом процесса урбанизации (на примере города Ургенч).....25

Durdiyev Khurshid Davronbek ugli

Principles of urban street and road network planning, taking into account the urbanization process (using the city of Urgench as an example).....49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....53

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.10/2025.27.12.T.01.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

DURDIYEV XURSHID DAVRONBEK O'G'LI

**URBANIZATSIYA JARAYONINI HISOBGA OLGAN HOLDA SHAHAR KO'CHA
-YO'L TARMOG'INI REJALASHTIRISH TAMOYILLARI (URGANCH SHAHRI
MISOLIDA)**

**05.09.02 - "Geotexnika" (Yo'llar, yo'llarni raqamlashtirish va yo'l harakati xavfsizligi.
Yo'l telematikasi yo'nalishlari bo'yicha)**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2026

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbek Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/T5755 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tstu.uz) va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Urokov Aslidin Xushvaktovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xotamov Asadulla Toshtemirovich
texnika fanlari doktori, professor

Musulmanov Kuvonchbek Nasrullayevich
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.10/2025.27.12.T.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2026 yil "___" ___ soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100167, Toshkent, Temiryo'lchilar ko'chasi 1-uy. Tel./faks: (998-71) 277-54-87, e-mail: tashiit_rektorat@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100167, Toshkent, Temiryo'lchilar ko'chasi 1-uy. Tel./faks: (998-71) 277-54-87, e-mail: tashiit_rektorat@mail.ru).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil "___" _____ kuni tarqatilgan.
(2026 yil "___" ___ dagi ___-raqamli reyestr bayonnomasi).

I.S.Sadikov,

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, t.f.d., professor

R.M.Xudaykulov,

Ilmiy darajalar beruvchi
kengash kotibi, PhD, professor

K.X.Azizov,

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi o'rinbosari, t.f.n., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda shahar ko'cha-yo'l tarmog'ida yuzaga kelayotgan tirbandliklar natijasida transport vositalarining manzilga yetib borish integral imkoniyatining pasayishi, hamda yo'nalishli transport vositalarining harakat grafiklarini buzilishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, shaharlarda urbanizatsiya va avtomobillashtirish ko'rsatkichining kun sayin oshib borishi, shahar aholisining qishloq aholisiga nisbatan o'sishi sezilarli darajada oshib ketmoqda. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining qariyb 56,2 % qismi shaharlarda istiqomat qiladi. BMT tadqiqotlariga ko'ra, 2050-yilga borib bu ko'rsatkich 68,6% ga yetishi prognoz qilingan¹. Hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlarda shaharlardagi transport tizimining uzliksizligini va samaradorligini ta'minlash, aholining va avtomobillar sonining keskin o'sishini inobatga olib, shahar ko'cha-yo'l tarmog'ini rejalashtirishni talab qilmoqda. Shuning uchun ko'cha-yo'l tarmog'ida ko'chalarning yuklanganlik darajasini kamaytirish hamda o'tkazuvchanlik qobiliyatini oshirish natijasida aholining manzilga yetib borish vaqtini kamaytirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda shahar hududining kengayishi bilan ko'cha-yo'l tarmog'ini o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash, shahar ko'cha-yo'l tarmog'ini raqamli texnologiyalar asosida jumladan, sun'iy intellekt (AI) va GIS dasturlari yordamida transport oqimini modellashtirish hamda aholi harakatchanligini optimallashtirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, shahar ko'cha-yo'l tarmog'ini rejalashtirish va avtomobillar harakat sharoitini yaxshilash, aholi soni, urbanizatsiya jarayoni va transport vositalarini o'sishi bilan birgalikda ko'cha-yo'l tarmog'ini ham unga mutanosib rivojlantirish hamda aholining bir manzildan ikkinchi bir manzilga yetib borish vaqtini kamaytirish muhim ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Respublikamizda shahar ko'cha-yo'l tarmog'ida tirbandliklarni kamaytirish, ko'cha va yo'llarning o'tkazuvchanligini oshirish hamda shahar infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmonida "...yo'l infratuzilmasini xalqaro standartlarga moslashtirish, yo'llarda xavfsiz harakatlanish uchun barcha ishtirokchilariga munosib sharoitlarni yaratish"² bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, shahar ko'cha-yo'l tarmog'ini rejalashtirish va

¹ <https://population.un.org/wup/>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

avtomobillar harakat sharoitini yaxshilash, shahar infratuzilmasini rivojlantirish, insonlarning manzilga yetib borish vaqtini kamaytirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar va samarali tamoyillarni ishlab chiqish davlat siyosatida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-330-sonli "Yo'l xo'jaligi sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va PQ-394-sonli "2024 – 2026 yillarda Xorazm viloyatining turizm salohiyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II "Energetika, energiya va resurs-tejamkorlik, transport va asbobsozlik" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Shahar ko'cha-yo'l tarmog'ini rejalashtirish bo'yicha O'zbekiston va xorijda bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Xususan, G.Zhao, X.Zheng, Zh.Yuan, L.Zhang, I.Tkachenko, V. Ilchenko, R.Louf, F.Zhao, M.Barthelemy, P.Brandiliy, F.Rauch, F.Zhao, J.Wu1, H.Sun, Z.Gao, R.Liu, V.X.Nguyen, J-P.Rodriguye, L.H.Guo, S.Cheng, J.Liu, Y.Vang, Y.Cai, O.Aktas, S.Selim, R.Ali, R.Goldston, E.M.Lobanov, A.V.Kossov, I.A.Baxirev, V.V.Silyanov, E.R.Domke, Ye.N.Borovik, D.S.Martyaxin, V.Ignatov, A.N.Krasnikov, Ye.N.Dubrovin, T.V.Sigayeva, O.N.Baxtina, V.V.Shirin, S.S.Krakovich, A.Yu.Mixaylov, I.M.Golovnix, E.A.Safronov, Ya.V.Xomyak, S.V.Vitolin, D.Yu.Kastirin, A.M.Plotnikov, L.Ye.Kushenko, I.S.Sodiqov, Q.X.Azizov, A.X.Urokov, J.I.Sodiqov, K.N.Musulmanov, Q.T.Usmonov, A.T.Xotamov, A.A.Qutliyev va boshqalar.

Biroq, yuqorida keltirilgan tadqiqotchilar tomonidan jadal urbanizatsiya va avtomobillashtirish darajasining keskin o'sishi sharoitida transport vositalarining manzilga yetib borish imkoniyatini (tezligini) oshirish hamda vaqtini qisartirish kabi omillarga yetarlicha e'tibor berilmagan. Natijada shahar ko'cha-yo'l tarmog'ini rejalashtirish tamoyillarini takomillashtirish dolzarb ilmiy masala sifatida o'zining dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat transport universitetining "Avtomobil yo'llarini loyihalash va geomatika" kafedrasida olib borilgan "O'zbekistonning tabiiy iqlim sharoitida avtomobil yo'llarini loyihalashning innovatsion usullarini ishlab chiqish" (2025-2026-yy) mavzusidagi, shuningdek, "Shahar infratuzilmalari muhandisligi va sun'iy intellekt" kafedrasida olib borilgan "Shahar ko'cha-yo'l tarmoqlarini rivojlantirish va takomillashtirish muammolari" (2024-2026-yy) mavzularidagi ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Urbanizatsiya jarayonini, aholi va avtomobillar sonining oshib borishini hisobga olgan holda shahar ko'cha-yo'l tarmog'ini rejalashtirish tamoyilini takomillashtirish va avtomobillarni manzilga etib borish imkoniyatini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

shaharlar ko'cha-yo'l tarmog'ini rejalashtirish tamoyillari bo'yicha bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlari va mavjud adabiyotlar manbaini tahlil qilish;
shahar mavjud ko'cha-yo'l tarmog'ining ekspluatatsion holatini tahlil qilish va shahar hududida manzilga etib borish integral imkoniyatini baholash;

tashqi avtomobil yo'llarining shaharga kirib kelish bo'laklarida va shahar ko'cha-yo'llari tarmog'ida transport oqimining holatini tadqiq qilish;

jadal urbanizatsiya jarayoni, aholi va avtomobillar sonining o'sib borishini hisobga olgan holda shahar ko'cha-yo'l tarmog'ini rejalashtirish tamoyilini takomillashtirish;

shahar ko'cha-yo'l tarmog'ini samarali rejalashtirish hisobiga ko'cha-yo'l tarmog'ining yuklanganlik darajasini pasaytirish va shahar hududida manzilga yetib borish integral imkoniyatini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti sifatida Urganch shahar ko'cha-yo'l tarmog'i hamda unga tutash avtomobil yo'llari belgilandi.

Tadqiqotning predmeti sifatida Urganch shahri ko'cha-yo'l tarmog'idagi transport oqimining holati, ko'cha-yo'llarni rejalashtirish tamoyillari olindi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida matematik statistika, modellashtirish, rejalashtirish va geoaxborot texnologiyalari usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

shahar ko'cha-yo'l tarmog'ida transport oqimining holatini tadqiq qilish natijasida harakat tezligiga harakat jadalligining va transport oqimi zichligining ta'siri o'rganildi, shuningdek, harakat jadalligi va harakat tezligining hamda transport oqimi zichligi va harakat tezligining o'zaro bog'liqlik qonuniyatlari aniqlandi;

urbanizatsiya jarayoni, aholi va transport vositalari sonining yillik o'sish sur'atini hisobga olgan holda hamda yo'l tarmog'i zichligini fazoviy tahlil qilish asosida shahar hududining kengayish tezligini aniqlash modelining konseptual blok-sxemasi ishlab chiqildi;

shahar hududining kengayish tezligini aniqlash modelining konseptual blok-sxemasiga, ma'lumotlarni taxlil qayta ishlash va ekonometriyaga asoslanib modellashtirish, kodlash, regressiya tahlili hamda xatoliklarni tekshirish orqali shahar hududining kengayish tezligini aniqlashning ko'p o'zgaruvchili logarifmik regressiya modelining matematik ifodasi aniqlangan;

urbanizatsiya jarayoni, aholi va transport vositalari sonining o'sish sur'ati va yo'l tarmog'i zichligini fazoviy tahlil qilish orqali shahar hududining

kengayish tezligini aniqlashning ko'p o'zgaruvchili logarifmik regressiya modeli asosida yo'l tarmog'i zichligini aniqlashning matematik ifodasi ishlab chiqildi;

jadal urbanizatsiya jarayonini, aholi va transport vositalari sonini o'sib borishini hamda shahar hududini kengayib borish tezligini hisobga olgan holda shahar ko'cha-yo'l tarmog'ini rejalashtirish tamoyili takomillashtirildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Urganch shahri ko'cha-yo'l tarmog'ining takomillashtirilgan tamoyillari asosidagi rejasi ko'chalarning o'tkazuvchanlik qobiliyatini oshirish va shaharda bir manzildan ikkinchi manzilga yetib borish imkoniyatini oshirish hamda shahar transportining ish samaradorligini oshirishga olib keladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotlarda zamonaviy uslub va yuqori aniqlikdagi o'lchov qurilmalaridan foydalanilganligi, katta hajmli ma'lumotlarning statistik tahlili, olingan natijalarning boshqa natijalarga mos kelishi, tadqiqot natijalarining qiyosiy tahlili va ularning o'zaro mosligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Ilmiy ahamiyati shahar ko'cha-yo'llari tarmog'ini rejalashtirishda urbanizatsiya jarayoni, aholi va transport vositalari sonining o'sish sur'ati va yo'l tarmog'i zichligini fazoviy tahlil qilish asosida shahar hududining kengayish tezligini aniqlashning ko'p o'zgaruvchili logarifmik regressiya modeli orqali yo'l tarmog'i zichligi va uzunligiga bo'lgan talabni aniqlashning matematik ifodasi ishlab chiqilganligi hamda shahar ko'cha-yo'l tarmog'ini rejalashtirish tamoyilini takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Urganch shahri ko'cha-yo'l tarmog'i ilmiy asosda rejalashtirilganligi va taklif etilgan yechimlar shahar yo'llarida transport oqimlarini harakat sharoitining qulayligini oshishi hamda harakat uzluksizligini ta'minlanishi natijada ko'cha-yo'l tarmog'ining o'tkazuvchanligini ortishi, avtomobillarning manzilga yetib borish vaqtini qisqarishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Urbanizatsiya jarayonini hisobga olgan holda shahar ko'cha-yo'l tarmog'ini rejalashtirish tamoyillari (Urganch shahri misolida) mavzusida bajarilgan tadqiqot natijalari asosida:

shahar ko'cha-yo'l tarmog'ida transport oqimining holatini tadqiq qilish natijasida harakat tezligiga harakat jadalligining va transport oqimi zichligining ta'siri o'rganildi, shuningdek, harakat jadalligi va harakat tezligining hamda transport oqimi zichligi va harakat tezligining o'zaro bog'liqlik qonuniyatlari aniqlanganligi bo'yicha ilmiy yangilik Urganch shahar hokimiyati huzuridagi Urganch shahar obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari Qo'mitasining 2026-yil 27-apreldagi 03/10-2143/2-son ma'lumotnomasi, Xorazm viloyati Urganch shahar hokimligining 2026-yil 1-maydagi 123-son dalolatnomasi). Natijada, Urganch shahar ko'cha-yo'l tarmog'ida transport oqimining 85%

ta'minlanganlik harakat tezligini 8,7 km/soatga oshirishga erishilgan;

urbanizatsiya jarayoni, aholi va transport vositalari sonining yillik o'sish sur'atini hisobga olgan holda hamda yo'l tarmog'i zichligini fazoviy tahlil qilish asosida shahar hududining kengayish tezligini aniqlash modelining konseptual blok-sxemasi ishlab chiqilganligi bo'yicha ilmiy yangilik Urganch shahar hokimiyati huzuridagi Urganch shahar obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari Qo'mitasining 2026-yil 27-apreldagi 03/10-2143/2-son ma'lumotnomasi, Xorazm viloyati Urganch shahar hokimligining 2026-yil 1-maydagi 123-son dalolatnomasi). Natijada, Urganch shahar ko'cha-yo'l tarmog'ini istiqbolli rejalashtirish tashkil qilingan hamda shahar hududida transport ishining samaradorligini 24% oshirishga erishilgan;

shahar hududining kengayish tezligini aniqlash modelining konseptual blok-sxemasiga, ma'lumotlarni taxlil qayta ishlash va ekonometriyaga asoslanib modellashtirish, kodlash, regressiya tahlili hamda xatoliklarni tekshirish orqali shahar hududining kengayish tezligini aniqlashning ko'p o'zgaruvchili logarifmik regressiya modelining matematik ifodasi aniqlanganligi bo'yicha ilmiy yangilik Urganch shahar hokimiyati huzuridagi Urganch shahar obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari Qo'mitasining 2026-yil 27-apreldagi 03/10-2143/2-son ma'lumotnomasi, Xorazm viloyati Urganch shahar hokimligining 2026-yil 1-maydagi 123-son dalolatnomasi). Natijada, Urganch shahar yo'l-transport infratuzilmalari yaxshilangan, shahar transporti ishi samaradorligi 40% ga oshirishga erishilgan;

urbanizatsiya jarayoni, aholi va transport vositalari sonining o'sish sur'ati va yo'l tarmog'i zichligini fazoviy tahlil qilish orqali shahar hududining kengayish tezligini aniqlashning ko'p o'zgaruvchili logarifmik regressiya modeli asosida yo'l tarmog'i zichligini aniqlashning matematik ifodasi ishlab chiqilganligi bo'yicha ilmiy yangilik Urganch shahar hokimiyati huzuridagi Urganch shahar obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari Qo'mitasining 2026-yil 27-apreldagi 03/10-2143/2-son ma'lumotnomasi, Xorazm viloyati Urganch shahar hokimligining 2026-yil 1-maydagi 123-son dalolatnomasi). Natijada, Urganch shahar yo'l-transport infratuzilmalari yaxshilangan, shahar ko'cha-yo'l tarmog'ining real vaqtda va istiqbolda talab qilinadigan uzunligi aniqlangan;

jadal urbanizatsiya jarayonini, aholi va transport vositalari sonini o'sib borishini hamda shahar hududini kengayib borish tezligini hisobga olgan holda shahar ko'cha-yo'l tarmog'ini rejalashtirish tamoyili takomillashtirilganligi bo'yicha ilmiy yangilik Urganch shahar hokimiyati huzuridagi Urganch shahar obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi

huzuridagi Avtomobil yo'llari Qo'mitasining 2026-yil 27-apreldagi 03/10-2143/2-son ma'lumotnomasi, Xorazm viloyati Urganch shahar hokimligining 2026-yil 1-maydagi 123-son dalolatnomasi). Natijada, Urganch shahar ko'cha-yo'l tarmog'ining va shahar transport infratuzilmalarining yangilangan loyihasi ishlab chiqilgan bo'lib, bu bilan shahar hududida manzilga yetib borish imkoniyati oshirilgan va vaqtini 20 daqiqaga qisqartirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida hamda, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetidagi ilmiy-amaliy seminarlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, shundan 4 tasi (1 tasi xorijiy jurnalda) O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiya ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarda, 5 tasi xalqaro va mahalliy darajadagi konferensiya to'plamlarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, 4 bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, jami 114 sahifadan tashkil topgan.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obyekti va predmetlari tavsiflangan, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi va dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi, tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi, tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Muammoning zamonaviy holati, tadqiqotning maqsad va vazifalari”** deb nomlangan birinchi bobida O'zbekiston Respublikasida urbanizatsiya jarayoni va shaharlar ko'cha-yo'l tarmog'idagi mavjud muammolar, shaharlar ko'cha-yo'l tarmog'ini rejalashtirishning mavjud tamoyillari va ularni o'ziga xosliklarini tahlil qilish, shaharlar ko'cha-yo'l tarmog'ini rejalashtirish bo'yicha xorijiy tajribalar, Urganch shahri mavjud ko'cha-yo'l tarmog'ining bugungi holatini tahlil qilish bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


XX asr boshida dunyo shaharlarida 224,4 million kishi istiqomat qilgan bo'lib, bu yer yuzi aholisining 13,6 foizini tashkil etar edi. Oradan yarim asr o'tib, 1950-yilga kelib, shahar aholisi ikki barobardan ko'proq oshdi. 1990-yilga kelib esa shaharlarda 2,261 milliard kishi yashardi, ularning ulushi dunyo aholisining 41 foizini tashkil qilar edi. Hozirgi kunda esa shahar aholisi soni 4,4 milliardga yaqinlashib, qishloq aholisi sonidan oshib ketgan va 2025 yilda dunyo aholisining 56,2 foizini tashkil qildi

O'zbekistonda ham shahar aholisi soni yildan-yilga ortib bormoqda. Bu jarayon asosan shaharlarda ish, ta'lim, tibbiyot, madaniyat va xizmat ko'rsatish sohalari kengroq yo'lga qo'yilgani uchun qishloq aholisi shaharlarga ko'chib kelmoqda. O'zbekistonda shahar aholisini qishloq aholisiga nisbatan o'zgarishini 1-rasmda ko'rish mumkin. Hozirgi kunda O'zbekistonda shaharlarda 19,6 million kishi va qishloqlarda 18,4 million kishi istiqomat qilishmoqda.




1-rasm. Respublikamiz shahar va qishloq aholisini o'sishi

Shaharlarning aholisini o'sib borishi, shuningdek jadal urbanizatsiya jarayonini hamda avtomobillar sonini keskin ortib borishini hisobga olgan holda O'zbekiston shaharlari ko'cha-yo'l tarmog'ini rejalashtirish tamoyillarini takomillashtirish zamonaviy muammolardan hisoblanadi. Tadqiqotlarda bugungi kunda amalda qo'llanilayotgan shahar ko'cha-yo'l tarmog'ini rejalashtirish tamoyillari tahlil qilindi. Quyida (2-rasm) shahar ko'cha-yo'l tarmog'ini rejalashtirishning mavjud va bugungi kunda amalda foydalanib kelinayotgan tamoyillari keltirilgan.



2-ram. Shahar ko'cha-yo'l tarmog'ini rejalashtirishning mavjud tamoyillari

Ko'plab xorijiy shaharlarda o'sib boruvchi tirbandlik muammosini yechishda yo'l tarmog'ini rivojlantirishgan, qo'shimcha yo'llar va har xil sathli yo'l o'tazgichlarni qurish choralarini qo'llashgan. Xorijiy olimlar G.Zhao, X.Zheng, Zh.Yuan, L.Zhang tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda dunyoning 4-ta yirik shaharlari New York, London, Chicago va Pekinda shahar xududini kengayish tezligi va yo'l tarmog'i zichligi orasidagi bog'liqlik qonuniyatlari o'rganilgan va ularning o'zaro bog'liqlik egri chiziqi grafigi quyidagicha qurilgan (3-rasm).




3-rasm. Shahar hududini kengayish tezligi va yo'l tarmog'i zichligi

orasidagi o'zaro bog'liqlik egri chiziqli grafigi

Ushbu tadqiqotda olimlar shahar hududini kengayish tezligini masofaviy zondlash orqali yillar davomida kuzatishgan va hudud kengayishi natijasida yo'l zichligi kamayib borishini aniqlashgan.

Tadqiqot ob'yekti hisoblangan Urganch shahri ko'cha-yo'l tarmog'i va transport vositalarining bugungi holati o'rganildi va natijalar quyidagi diagrammada aks ettirildi (4-rasm).




4-rasm. Transport vositalari soni va ko'cha-yo'l tarmog'i uzunligining o'zgarish dinamikasi

Diagrammadan transport vositalari soni va ko'cha-yo'l tarmog'i uzunligi tahlil qilinganda, transport vositalari sonining jadal o'zgarishini hisobga olib, shunga mos ko'cha-yo'l tarmog'i rivojlanmaganini ko'rish mumkin. Natijada, ko'cha-yo'l tarmog'ida tirbandliklar yuzaga kelmoqda. Bugungi kunda Urganch shahri uchun jadal urbanizatsiya va yuqori avtomobillashtirish darajasi sharoitida avtomobillarning manzilga yetib borish imkoniyatini oshirish hamda yo'llarda o'tkazuvchanlik qobiliyatini oshirish uchun shahar ko'cha-yo'l tarmog'ini rejalashtirish tamoyillarini takomillashtirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.


Dissertatsiyaning **“Shahar ko'cha-yo'l tarmog'i va shaharga kirib keluvchi avtomobil yo'llarida transport oqimi holatini tadqiq qilish”** deb nomlangan ikkinchi bobida shahar magistral ko'chalarida transport oqimining harakat tezligiga harakat jadalligi va tarkibining ta'sirini, shahar magistral ko'chalarida transport oqimining harakat tezligiga oqim zichligining ta'sirini, shahar ko'cha-yo'l tarmog'ini tashqi avtomobil yo'llari bilan bog'lanadigan bo'laklarida transport oqimi holatining avtomobillar harakat sharoitiga ta'sirini tadqiq qilish hamda shahar ko'cha-yo'l tarmog'i yo'l sharoitining o'tkazuvchanlik qobiliyatini baholash va yo'lning yuklanganlik darajasini aniqlash bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Shahar ko'chalaridagi transport oqimining harakat sharoitining qulayligi va xavfsizligini baholashda harakat tezligi integral ko'rsatkich hisoblanadi. Tadqiqot ob'ekti sifatida belgilangan Urganch shahrining asosiy magistral ko'chalarida, kunning “tig'iz vaqt”larida transport oqimining harakat tezligi tadqiq qilindi. Tadqiqot natijalariga ko'ra transport oqimi harakat tezligining taqsimot egriligi va jamlangan zichlik grafiqlari


qurilidi (5-10-rasm). Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, kunning "tig'iz vaqt"larida ko'chalar bo'yicha transport oqimining modal tezligi 20-30 km/soatni va eng yuqori 85% ta'minlanlangan harakat tezligi 35-40 km/soatni tashkil qildi. Bundan xulosa qilinsa, shahar ko'cha-yo'l tarmog'idagi mavjud muammolar va yo'llarning transport-ekspluatatsion holati qoniqarsizligi sababli transport oqimining harakat tezligi pasaygani va transport oqimining zichligini oshgani hisobiga yo'llarda tirbandliklarni yuzaga keilishi kuzatilmoqda.




5 – rasm. Pahlavon Mahmud ko'chasining "Egrilik taqsimoti va jamlanagan zichlik" grafigi




6 – rasm. Tinchlik ko'chasining "Egrilik taqsimoti va jamlanagan zichlik" grafigi




7 – rasm. Al-Xorazmiy ko'chasining "Egrilik taqsimoti va jamlanagan zichlik" grafigi



8 – rasm. Islom Karimov ko'chasining "Egrilik taqsimoti va jamlanagan zichlik" grafigi





9 – rasm. A. Bahodirxon ko'chasining "Egrilik taqsimoti va jamlanagan zichlik" grafigi




10 – rasm. Xonqa yo'li ko'chasining "Egrilik taqsimoti va jamlanagan zichlik" grafigi


Harakat miqdoriga nisbatan harakat tezligining o'zgarishi tadqiq qilinganda, harakat miqdorini oshishi bilan harakat tezligini pasayishi kuzatiladi. Tadqiqotlar natijasida shahar ko'cha-yo'llarida harakat miqdori va harakat tezligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik qonuniyatlari va ularning tenglamalari aniqlandi (11-rasm). Ushbu qonuniyatlardagi bog'liqlik tenglamalari egri chiziqli (polinomial) va eksponentsial tavsifga ega bo'lib, determinatsiya koeffitsiyenti $R^2 = 0,92-0,96$ ni tashkil qildi.



Pahlavon Mahmud ko'chasi



Islom Karimov ko'chasi





Abulg'ozzi Bahodirxon ko'chasi

Tinchlik ko'chasi



11-rasm. Harakat tezligining harakat miqdoriga bog'liqligi grafiklari

Transport oqimi zichligiga nisbatan harakat tezligining o'zgarishi tadqiq qilinganda, oqim zichligi oshishi bilan harakat tezligini pasayishi kuzatiladi. Tadqiqotlar natijasida shahar ko'cha-yo'llarida transport oqimi zichligi va harakat tezligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik qonuniyatlari va ularning tenglamalari aniqlandi (12-rasm). Ushbu qonuniyatlardagi bog'liqlik tenglamalari egri chiziqli (polinomial) tavsifga ega bo'lib, determinatsiya koeffitsiyenti $R^2 = 0,89-0,95$ ni tashkil qildi.



Pahlavon Mahmud ko'chasi

Islom Karimov ko'chasi




Abulg'ozzi Bahodirxon ko'chasi

Tinchlik ko'chasi


12-rasm. Transport oqimi zichligi va harakat tezligiga o'rtasidagi bog'liqlik grafigi

Urganch shahri ko'cha-yo'l tarmog'ida tirbandliklarning yuzaga kelishi sabablarini aniqlash maqsadida shahar ko'chalari va shaharga kunlik kirib keluvchi transport vositalarining harakat miqdorini aniqlash talab qilindi. Shaharga kiruvchi va chiquvchi transport vositalari miqdoriga aniqlik kiritish maqsadida, Urganch shahriga kirib keluvchi D213, D214, D215, D216, D217, D218 avtomobil yo'llarining shahar hududiga kirish joylarida harakat miqdorini aniqlash uchun eksperimental tadqiqotlar o'tkazildi.




13-rasm. Shaharga kiruvchi transport vositalarining miqdori (avt/sutka)

Tadqiqotlar natijasida shaharga kirib keluvchi transport vositalari miqdori 84847 avto/sutkani (13-rasm) va shahardan chiqib ketuvchi transport vositalari miqdori 67372 avto/sutkani tashkil qilishi aniqlandi (14-rasm). Shaharda ro'yxatga olingan transport vositalari miqdori 58461 avto/sutkani tashkil qiladi. Shahar ko'cha-yo'l tarmog'ida kun davomida 143308 ta avtomobillar harakatlanadi. Shahar ko'cha-yo'l tarmog'ida transport oqimi zichligi 42 avto/km ni tashkil qiladi.



14-rasm. Shahardan chiquvchi transport vositalarining miqdori (avt/sutka)

Tadqiqotlar natijasida aniqlangan harakat miqdori va harakat tezligi ma'lumotlari asosida va mavjud usullar yordamida ko'cha-yo'l tarmog'ining amaliy o'tkazuvchanlik qobiliyati aniqlandi. Shahar ko'cha-yo'llarining aniqlangan amaliy o'tkazuvchanlik qobiliyati va harakat miqdori natijalari asosida ko'cha-yo'l tarmog'ining yuklanganlik darajasi baholandi hamda yuklanganlik darajasini baholash natijalari Urganch shahrining QGIS dasturida yaratilgan xarita sxemasida aks ettirildi (15-rasm).



15-rasm. Urganch shahar ko'cha-yo'l tarmog'ining yuklanganlik darajasi xarita sxemasida

15-rasmda keltirilgan Urganch shahar ko'cha-yo'l tarmog'ining yuklanganlik darajasi xarita sxemasidan kunning "tig'iz vaqt"larida shaharga kirib keluvchi avtomobil yo'llarida va shaharning asosiy magistral ko'chalarida yo'lning yuklanganlik darajasi to'yingan oqim holatiga kelishini ko'rish mumkin.

Dissertatsiyaning "Urbanizatsiya jarayoni, shahar aholisi va transport vositalarining jadal o'sib borishini hisobga olib ko'cha-yo'l tarmog'ini rejalashtirish tamoyilini takomillashtirish" deb nomlangan uchinchi bobida shahar ko'chalarida manzilga yetib borish integral imkoniyatini baholash, shahar hududini kengayish tezligini aniqlash modelining konseptual blok-sxemasini hamda, yo'l tarmog'i zichligini fazoviy tahlil qilish asosida shahar hududini kengayish tezligini aniqlashning ko'p o'zgaruvchili modelini ishlab chiqish, shuningdek urbanizatsiya jarayoni, aholi va transport vositalari sonini hisobga olgan holda shahar ko'cha-yo'l tarmog'ini rejalashtirish tamoyilini takomillashtirish bo'yicha tadqiqot natijalari keltirilgan.


Shahar ko'cha-yo'l tarmog'ining mavjud ekspluatatsion holati va yuklanganlik darajasi shaharda avtomobillarning manzilga yetib borish integral imkoniyatiga keskin ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar natijasida Urganch shahar markazidan shaharning chetki hududiga yetib borish integral imkoniyati baholandi (16-rasm).



16-rasm. Shahar hududida avtomobillarning manzilga etib borish integral imkoniyati xarita-sxemasi

Shaharda avtomobillarning manzilga yetib borish integral imkoniyatini baholash natijalariga ko'ra, kunning "tig'iz vaqt"larida shahar xududining eng chetki qismiga yetib borish vaqti 55 minutni tashkil qiladi.

Jadal urbanizatsiya hamda transport vositalari va aholi sonining o'sishi bugungi kunda shahar ko'cha-yo'l tarmog'ini rejalashtirish tamoyillarini takomillashtirishni talab qiladi. Xorijiy olimlar tadqiqotlarini tahlil qilish hamda olib borilgan eksperimental tadqiqotlar natijasida olingan qonuniyatlarga asoslangan holda shahar xududini kengayish tezligini aniqlashning konseptual blok-sxemasi ishlab chiqildi. Ushbu blok-sxemani ishlab chiqish jarayonida tadqiqot natijalari asosida shaharning kengayish tezligi, yo'l zichligi, aholining yillik o'sishi sur'ati, transport vositalari soni va urbanizatsiya jarayoni ma'lumotlari hisobga olindi. Birinchi bosqishda ma'lumotlar "Statistika" dasturiga kiritildi $X=P, V, U$. Kiritilgan ma'lumotlar "eViews" dasturiga o'tkazildi va kodlash orqali modellashtirish jarayoni bajarildi. Bunda dasturga kiritiladigan qiymatlar kodlash orqali kiritildi va kodlar orqali regrission tahlil yuzaga keltirildi. Regrission tahlil asosida shahar hududini kengayish tezligini aniqlash modeli ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan modelni "Java Script" dasturida tahlil qilish orqali modelning xatolik darajasi aniqlandi. Bunda yuqori aniqlikdagi model darajasiga erishilgandan keyin natijada "HA" topshirig'i qabul qilindi. Agarda natija talabga javob bermasa yoki noaniqlik yuzaga kelsa u holda "YO'Q" topshirig'i qabul qilinib, yana orqaga qayta ishlashga qaytiladi (17-rasm).



17-rasm. Shahar hududini kengayish tezligini aniqlash modelining konseptual blok-sxemasi

Xorijlik olimlar Guoliang Zhao, Xinqi Zheng, Zhiyuan Yuan hamda Lulu Zhang tomonidan shahar hududini kengayish tezligi va yo'l tarmog'i zichligini aniqlashning quyidagi matematik modeli ishlab chiqilgan (1):

$$\ln y = \alpha_0 + \beta_1 x + \beta_2 x^2 + \beta_3 x^3 + \varepsilon_t \quad (1)$$

bu yerda y – shahar hududini kengayish tezligi, x – yo'l tarmog'i zichligi, $\beta_i (i = 1,2,3)$ – regressiya koefitsiyenti, α_0 – doimiy son, ε_t – esa regression qoldiq.

Ushbu model aholining yillik o'sishi sur'ati, transport vositalari soni, urbanizatsiya jarayoni va manzilga yetib borish integral imkoniyatini hisobga olgan holda takomillashtirildi (2):

$$\ln(y_t) = \alpha_0 + \beta_1 X_t + \beta_2 P_{g,t} + \beta_3 V_{g,t} + \beta_4 U_t + \delta_1 A_{bus,t} + \delta_2 A_{car,t} + \delta_3 A_{bike,t} + \varepsilon_t \quad (2)$$

bu yerda:

y_t - shahar hududining yillik kengayish tezligi, km²/yil.

α_0 - shaharning bazaviy kengayish koefitsiyenti.

x_t - yo'l tarmog'i uzunligining normallashtirilgan qiymati;

P_t – aholi sonining yillik o'sish sur'ati;

V_t – transport vositalari sonining yillik o'sish sur'ati;

U_t – urbanizatsiya darajasi;

$P_t \cdot U_t$ - urbanizatsiya-demografik bosim indeksi (aholi o'sishi va urbanizatsiya birgalikda);

ε_t - tasodifiy xatolik yoki regressiya qoldig'i.

Takomillashtirish natijasida ishlab chiqilgan shahar hududining kengayish tezligini aniqlashning ko'p o'zgaruvchili logarifimik regressiya

modeli ishlab chiqildi va uning quyidagi regressiya ko'effitsiyentlari va ularning qiymatlari aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

Modelni ishlab chiqishda aniqlangan regessiya ko'effitsiyentlari va ularning qiymatlari

Ko'rsatkich	Qiymat	Izoh
α_0	0,40	modelning doimiy hadi
β_1	0,80	yo'l tarmog'i ta'siri
β_2	-0,12	kvadratik tuzatish
β_3	0,01	kubik tuzatish
B_2	0,45	aholi o'sishi ta'siri
B_3	0,58	transport vositalari o'sishi ta'siri
B_4	0,32	urbanizatsiya-demografik bosim ta'siri

Olingan ko'rsatkichlar va qiymatlardan foydalanib, shahar hududining yillik kengayish tezligini aniqlash bo'yicha hisoblashlar bajarildi.

$$P = (185\,750 - 181\,965) / 181\,965 = 0,0208 \text{ yoki } 2,08\%$$

$$V = (58\,461 - 53\,196) / 53\,196 = 0,0990 \text{ yoki } 9,90\%$$

$$U = (7\,421 + 9\,917) / 185\,750 = 0,0933 \text{ yoki } 9,33\%$$

$$\ln(y) = 1,117130$$

$$y = e^{1,117130} = 3,056 \text{ km}^2/\text{yil.}$$

Bajarilgan hisob ishlari hamda olingan tadqiqot natijalaridan kelib chiqib Urganch shahar hududining yillik kengayish tezligi yiliga 3,056 km²/yil ga oshib borishi aniqlandi.

$$S_{20} = 28 + (3.056 * 20) = 28 + 61.12 = 89.12 \text{ km}^2$$

Ishlab chiqilgan model asosida Urganch shahar ko'cha-yo'l tarmog'i zichligini aniqlashning matematik ifodasi topildi (3).

$$X = \frac{\ln(y) - \alpha_0 - \beta_2 P - \beta_3 V - \beta_4 U - \delta_1 A_{bus} - \delta_2 A_{car} - \delta_3 A_{bike}}{\beta_1} \quad (3)$$

Topilgan matematik ifoda (3)ni qo'llash natijasida Urganch shahrining kelajakdagi aholi va transport vositalari soni hamda urbanizatsiya jarayonini hisobga olgan holda yo'l tarmog'ining uzunligiga bo'lgan talab aniqlandi.

$$X = \frac{\ln(3.056) - 0.443 - (0.45 * 0.0208) - (0.58 * 0.0989) - (0.32 * 0.0933) - (0.18 * 0.60) - (0.22 * 0.75) - (0.12 * 0.50)}{0.02333}$$


Hisoblash jarayoni:

$$X = \frac{1.11708 - 0.443 - 0.00936 - 0.05736 - 0.02986 - 0.108 - 0.165 - 0.060}{0.02333} = \frac{0.24450}{0.02333} = 10.48 \text{ km/km}^2$$

Yo'l uzunligi:


$$L_{20} = X * S_{20} = 10.48 * 89.12 = 934.04 \text{ km}$$

Istiqbolda shahar hududining kengayishi va shahar ko'cha-yo'l tarmog'ining uzunligini oshib borishi orasidagi bog'liqlik quyidagi grafikda keltirildi. Bunda yillar davomida shahar hududi qanchaga kengayib boradi va bunga mutanosib yo'l tarmog'i qancha bo'lishi kerak degan o'zaro bog'liqlik diagrammasi qurildi (18-rasm). 18-rasmda hozirgi kundagi mavjud ko'cha-yo'l tarmog'i va 20 yildan keyingi bo'ladigan talab prognoz qilindi. Unga ko'ra 20 yildan keyin yo'l tarmog'iga bo'lgan talab 934 km ni tashkil qilishi aniqlandi.



18-rasm. Istiqbolda shahar hududining kengayishi va shahar ko'cha-yo'l tarmog'ining uzunligini prognozi

